



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **19 539** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3 305** taga yoki **14,5 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **21,1** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-dekabrda **4 323**ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,8 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



## 2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Tuman va shaharlar bo'yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
4 954	Navoiy shahri	4 285
3 671	Karmana tumani	2 998
3 071	Qiziltepa tumani	2 673
2 708	Xatirchi tumani	2 275
2 444	Navbahor tumani	2 071
1 663	Zarafshon shahri	1 279
1 581	Nurota tumani	1 369
957	Uchquduq tumani	748
904	Konimex tumani	873
573	Tomdi tumani	576
318	G'ozg'on shahri	392

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **19 539** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 796** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **4 285** tani yoki jamiga nisbatan **21,9** % ni tashkil etdi.

### 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Tomdi t.	51,2
G'ozg'on sh.	43,3
Konimex t.	28,2
Navoiy sh.	27,1
Karmana t.	23,8
Uchquduq t.	21,4
Navbahor t.	20,9
Qiziltepa t.	20,2
Nurota t.	19,3
Zarafshon sh.	14,6
Xatirchi t.	14,2

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **21,0** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **4,0** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **51,2** birlik, G'ozg'on shahrida **43,3** birlik, Konimex tumanida **28,2** birlik, Navoiy shahrida **27,1** birlik va Karmana tumanida **23,8** birlikka yetdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda


## Eng yuqori ko'rsatkich



## O'rta ko'rsatkich




## Eng past ko'rsatkich



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **51,2** birlik, G'ozg'on shahrida **43,3** birlik, Konimex tumanida **28,2** birlik, Navoiy shahrida **27,1** birlik, Karmana tumanida **23,8** birlik, Uchquduq tumanida **21,4** birlik, Navbahor tumanida **20,9** birlik, Qiziltepa tumanida **20,2** birlik, Nurota tumanida **19,3** birlik, Zarafshon shahrida **14,6** birlik hamda Xatirchi tumanida **14,5** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

848	Navoiy sh.	666
628	Karmana t.	515
568	Qiziltepa t.	556
643	Xatirchi t.	554
507	Navbahor t.	434
411	Zarafshon t.	386
436	Uchquduq t.	376
230	Nurota t.	313
226	Konimex t.	250
198	Tomdi t.	174
140	G'ozg'on sh.	99

2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – **15,4** %, Karmana tumani – **11,9** %, Qiziltepa tumani – **12,9** %, Xatirchi tumani – **12,8** %, Navbahor tumani – **10,0** %, Zarafshon shahri – **8,9** % Uchquduq tumani – **8,7** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shahar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1 369 baliqchilik xo'jaligida 754 ta yangidan tashkil etilgan.


Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahrida 666 ta, Karmana tumanida 515 ta hamda Qiziltepa tumanida 556 ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **21 999** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **8 467** (yoki **38,5 %**) ta, sanoat sohasida – **4 714** (yoki **21,4 %**) ta, xizmatlar sohasida – **4 315** (yoki **19,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 201** (yoki **14,6 %**) ta va qurilish sohasida **1 302** (yoki **5,9 %**) tani tashkil etgan.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar- dekabrda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2022- y. ■ 2023- y.




■ 2022- y. ■ 2023- y.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **26,0** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,1** % ga oshgan..



2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,0** % ni, chakana savdoda **93,8** % ni, yo'lovchi aylanmasida **87,0** % ni, yo'lovchi tashishda **86,8** % ni, qurilishda **79,1** % ni, xizmatda **57,0** % tashkil etdi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 795,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**2 190,6** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**1 469,2** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**1 127,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**781,4** mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (**527,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdida (**62,6** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so'mda**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.



## 2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini G'ozg'on shahar, Uchquduq tumani va Tamdi tumanlari (**100,0** %), Zarafshon shahri (**99,0** %), Qiziltepa tumani (**98,5** %), Nurota tumani (**86,2** %), Xatirchi tumani (**49,6** %), Navbahor tumani (**47,8** %), Konimex tumani (**42,2** %), Karmana tumani (**23,2** %) va Navoiy shahri (**1,7** %) tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G'ozg'on sh.	34,9	100,0
Navbahor t.	582,7	100,0
Xatirchi t.	688,9	100,0
Karmana t.	679,9	99,4
Konimex t.	190,7	93,8
Uchquduq t.	132,5	93,1
Zarafshon sh.	496,1	86,1
Navoiy sh.	943,2	78,2
Qiziltepa t.	1053,7	76,9
Nurota t.	447,4	49,6
Tomdi t.	62,6	19,1

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5 312,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qiziltepa tumanida (**1053,7** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (**943,2** mlrd. so'm), Karmana tumani (**679,9** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**688,9** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**582,7** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**496,1** mlrd. so'm) hamda Nurota tumanida (**447,4** mlrd. so'm) da qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **12 461,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **48,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **149, %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Zarafshon shahri (**3 212,2** mlrd. so'm), Tomdi tumani (**2 113,1** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 848,5** mlrd. so'm), Navoiy shahar (**1 479,6** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**897,1** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**828,8** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**543,1** mlrd. so'm) hamda Nurota tumani (**463,** mlrd. so'm) da qayd etildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

## 2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **18 909,8** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **101,8** % ni tashkil qildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**5 778,3** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**3 776,5** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**3 026,8** mlrd. so'm), Karmana tumani (**2 449,9** mlrd. so'm), Nurota tumani (**1 811,9** mlrd. so'm) hamda Konimex tumani (**950,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Zarafshon sh.	75,8	100,0
Uchquduq t.	374,6	99,7
Tomdi t.	497,8	99,6
Qiziltepa t.	3776,5	99,1
Navbahor t.	3026,8	99,1
Karmana t.	2449,9	95,1
Xatirchi t.	5778,3	94,6
Nurota t.	1811,9	94,5
Navoiy sh.	88,0	88,9
Konimex t.	950,1	87,7
G'ozg'on sh.	80,2	85,3

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

## 2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 237,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,8 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **107,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Uchquduq t.	624,4	99,6
Karmana t.	1 959,3	99,3
Tomdi t.	105,6	99,2
Qiziltepa t.	1 402,4	98,8
Nurota t.	618,9	98,6
Xatirchi t.	1522,1	97,8
Konimex t.	360,4	97,0
G'ozg'on sh.	6,3	94,5
Zarafshon sh.	1 124,0	93,4
Navbahor t.	693,5	92,5
Navoiy sh.	2 820,4	84,3


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**2 820,4** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 959,3** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**1 522,1** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**1 402,4** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**1 124,0** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**693,5** mlrd. so'm) Uchquduq tumani (**624,4** mlrd. so'm) va Nurota tumani (**619,9** mlrd. so'm) ga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Navoiy sh.	1 835,9
Karmana t.	1 032,7
Qiziltepa t.	800,3
Xatirchi t.	702,0
Zarafshon sh.	669,5
Navbahor t.	492,8
Nurota t.	390,7
Uchquduq t.	288,7
Konimex t.	216,8
Tomdi t.	122,0
G'ozg'on sh.	19,3

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 570,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,0** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**1 835,9** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 032,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**800,3** mlrd. so'm), Xatirchi tumani, (**702,0** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**669,5** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**492,8** mlrd so'm) va Nurota tumani (**390,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi  
(yanvar-dekabr oylarida)

3 267,6	Savdo xizmatlari	95,3
1 660,5	Transport xizmatlari	92,4
311,7	Shaxsiy xizmatlar	99,7
489,7	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	60,0
144,1	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	77,8
125,2	Boshqa xizmatlar	31,3
167,8	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	93,0
138,1	Ijara xizmatlari	94,4
24,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,7
82,3	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,7
73,9	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	17,7
76,4	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,8
8,7	Moliyaviy xizmatlar	0,3

*Hajmi, mlrd. so'mda*



*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,7 %** (311,7 mlrd. so'm), savdo xizmatlarida – **95,3 %** (**3 267,6 mlrd. so'm**), transport xizmatlarida – **92,4 %** (**1 660,5 mlrd. so'm**) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **60,0 %** (**489,7 mlrd. so'm**)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,3 %** (**8,7 mlrd so'm**) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **58 515,0** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **9,0** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Karmana t.	23470,2	34,2
Navoiy sh.	9865,0	2,1
Xatirchi t.	8954,9	16,5
Qiziltepa t.	6671,3	97,9
G'ozg'on sh.	2301,9	100,0
Zarafshon sh.	2118,4	98,4
Navbahor t.	1551,7	7,4
Uchquduq t.	1819,4	99,4
Konimex t.	1025,5	100,0
Nurota t.	298,3	4,4
Tomdi t.	160,9	99,8


hajmi, ming AQSH dollar

ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi G'ozg'on shahriida, Konimex tumanida – **100,0** %, Tomdi tumanida – **99,8** %, Uchquduq tumanida – **99,4** %, Zarafshon shahrida – **98,4** %, Qiziltepa tumanida – **97,9** %, Karmana tumanida – **34,2** %, Xatirchi tumanida – **16,5** %, Navbahor tumanida – **7,4** % va Nurota tumanida – **4,4** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **2,1** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **245 664,7 ming** AQSH dollarini yoki jami importning **36,2 %** ini tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi, va Uchquduq tumanlarida - **100,0 %**, Nurota tumanida - **96,3 %**, Qiziltepa tumanida - **95,5 %**, Zarafshon shahrida- **93,8 %**, Xatirchi tumanida - **79,7 %** Konimex tumanida - **74,2 %** hamda Navbahor tumanida **46,8 %** ni tashkil etdi.

G'ozg'on sh.	100,0
Tomdi t.	100,0
Uchquduq t.	100,0
Nurota t.	96,3
Qiziltepa t.	95,5
Zarafshon sh.	93,8
Xatirchi t.	79,7
Konimex t.	74,2
Navbahor t.	46,8
Karmana t.	41,9
Navoiy sh.	19,0


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **40,7 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,0 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 976 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 483 (49,5%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 455 (46,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 38 (3,9 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 47,8 % (467 ta), xizmatlar sohasida – 25,9 % (253 ta), sanoatda – 10,8 % (105 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,3 % (91 ta), qurilishda – 6,1 % (60 ta) ni tashkil etdi.

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi

236	Navoiy sh.	24,2
168	Karmana t.	17,2
134	Qiziltepa t.	13,7
114	Xatirchi t.	11,7
79	Navbahor t.	8,1
75	Zarafshon sh.	7,7
61	Nurota.t	6,3
39	Konimex.t	4,0
34	Uchquduq t.	3,5
17	Tomdi t.	1,7
19	G'ozg'on sh.	1,9


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (236 ta), Karmana tumani (168 ta), Qiziltepa tumani (134 ta) va Xatirchi tumani (114 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida **242** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **483** taga yetgan yoki 2019-yilning yanvar-dekabriga nisbatan **241** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida **367** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabriga **455** ta yoki **88** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida **40** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kelib **38** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilning yanvar-dekabriga nisbatan **2** taga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **405** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **424** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **19** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **223** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **441** taga yetgan yoki **218** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **21** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib, bu ko'rsatkich **29** tani tashkil etib, **8** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **37,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **49,5** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **12,2** % ga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **56,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabriga **46,6** % yoki **9,9** % ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich **3,9** % ga yetgan yoki **2,3** % ga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **62,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **49,5** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **12,9** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **34,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **46,6** % yoki **12,2** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **3,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib, bu ko'rsatkich **3,9** % yoki **0,7** % ga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **54,9** % ni savdo sohasida - **52,9** % ni, xizmatlar sohasida - **46,6** % ni, sohasida – sanoat sohasida 41,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **53,0** % ni, sanoat sohasida – **53,3** % ni, xizmatlar sohasida – **49,0** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi ,qurilish sohasida– **6,7** % ni, sanoat sohasida – **4,8** % ni, xizmatlar sohasida – **4,3** % ni tashkil etdi.

## 2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **55,1** % ni, qurilish sohasida – **56,7** % ni va savdo sohasida – **52,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoat sohasida - **54,1** % ni, xizmatlar sohasida – **49,0** % va savdo sohasida – **45,0** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **4,7** % ni, qurilish sohasida – **5,0** % ni va savdo sohasida – **2,4** % tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	42,5	53,7	3,8
<b>Band bo'lganlar soni</b>	15,1	82,7	2,2
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	28,7	68,6	2,7
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	21,3	74,8	3,9
<b>Raqobat muhiti</b>	35,4	62,7	1,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	43,2	54,0	2,8
<b>Band bo'lganlar soni</b>	18,2	80,1	1,6
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	27,9	69,4	2,7
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	21,4	74,2	4,4
<b>Raqobat muhiti</b>	36,0	61,7	2,3


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli